

ZAMONAVIY JAMIYATDA FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONANING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Nortojoyeva Durdona Sirojiddin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Farzandlar tarbiyasida oilaning o'rni qanchalik muhim? Avvalo ota-onalarning o'zlari farzandlariga yurish-turish, muomala jihatdan farzandlariga o'rnak bo'lishlari lozim. Chunki oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suloyatlarini his qilishu bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning barkamol tarbiyasi bo'lib yetishishi uchun ota –ona bilan bir qatorda oila a'zolari va mahalla ham katta ibrat maktabi hisobladi.*

Kirish so'zlar: *oilaga ota-ona, farzand tarbiyasi, o'qituvchi, maktab, mahalla, jamiyat, barkamol inson, odob- axloq,*

Annotation: *The role of the family in raising children is important. First of all, parents should set an example for their children in terms of behavior and communication. Because The environment in the family becomes stable when parents feel their responsibility. For children to grow up well- mannered and wel- rounded, along with parents, family members and the community (mahalla) are Аннотация also considered an important school of example.*

Keywords: *parents, child upbringing, teacher, school, mahalla, society, wel- rounded person, manners, family.*

Kirish so'zlar: *oilaga ota-ona, farzand tarbiyasi, o'qituvchi, maktab, mahalla, jamiyat, barkamol inson, odob- axloq,*

Аннотация: *Роль семьи в воспитании детей чрезвычайно важна. Прежде всего, сами родители должны быть примером для своих детей в поведении и общении. Потому что семейная атмосфера становится устойчивой благодаря тому, что родители осознают свою ответственность. Для того чтобы дети выросли воспитанными и гармонично развитыми, наряду с родителями важной школой примера считаются также члены семьи и махалля.*

Ключевые слова: *родители, воспитание детей, учитель школа махалля общест*

Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakari, yurish-turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatlarda oliyjanob fazilarlarni nomoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatdan nihoyatda taqlitchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odablari bilan o'zlari sezmaganda holda ularga ta'sir qiladi. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakatlar bilan bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan muhitni keltirib chiqaradi.

Ota-onalar o'z ijtimoiy burchini bajarar ekanlar farzandlarini mehnat qilishga uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr- muhabbat tuyg'usini shakllantirish, ularni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlash, turli ko'rinishdagi har tomonlama ijobiy ijobiy namunasini ko'rsatadi.

Ota-ona sinchkov psixolog, nozik didli pedagog, bolaning kelajagini yaratuvchi bashoratguy bo'lishi lizim. Ota-ona boladagi iste'dod kurtaklarini o'z vaqtida sezib, ularning rivojlanishiga sharoit yaratib bera olsa, bola shaxsiyatining kamol topishiga katta yo'l ochiladi. Ota-onaning o'z xulq-atvori hal qiluvchi eng muhim omildir. Bolani faqat u bilan gaplashganda, nasihat qilganda yoki unga biror narsa buyurgandagina tarbiyalayman deb o'ylash kerak emas. Siz bolani turmushingizning har bir daqiqasida hattoki o'zingiz uyda yo'qligingizda ham tarbiyalaysiz. Sizning qanday kiyinishingiz, boshqalar bilan va oshqalar harqida qanday gaplashishingiz, xursand bo'lishingiz, oila-a'zolaringiz bilan qanday muomala qilishingiz, bular hammasi katta ahamiyatga ega. Ota-ona o'ziga talabchan bo'lishi o'z oila a'zolarini hurmat qilishi, shuningdek har bir qadamini nazoratga olishi kerak.

Ba'zi ota-onalar bog'cha, maktab bor deb bola tarbiyasi bilan shug'illanmaydilar.

Ota-ona bog'cha, maktab bilan yaqin aloqa o'rnatsa, ulardagi tarbiyaviy ishlar ijtimoiy targ'ibot bilan uyg'unlikda olib borilsa, bola shaxsining shakllantirishda xatolar ro'y bermaydi. Ota-ona bola tarbiyasida bir yoqadan bosh chiqarsalar, agar ota boshqacha, ona boshqacha talab qo'ysa, bolada ikki yuzlamachilik alomatlarini ko'ramiz. Bunday paytda ota-ona darhol o'z xatolarini to'g'irlashi, boladagi nojo'ya harakatlarni nazorat ostiga olishlari lozim. Ota -ona shunday yo'l tutib, o'zlari berayotgan tarbiyaning bolaga qanday ta'sir ko'rsatayotganligini kuzatib borishi, bolada nojo'ya harakalar sezilsa tarbiyaning bosjqa samaraliroq usullarini qo'llashi zarur. Bolaga mehribonlik qilish, haddan tashqari erkalash uning kalandimog', xudbin qilib qo'yish yoki pismiq, jur'atsiz, tashabbussiz bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin. Bolani hadib jazolayverish, "sen odam bo'lmaysan" deb kamsitish ha noto'g'ri. Bunda bola qaysar bo'lib qoladi. Shuning uchun bolani vaqti-vaqtida rag'batlantirib turish kerak. Ayrim ota-onalar esa o'z farzandlari bilan kamroq muloqatda bo'lishni, o'zlarini ulardan uzoqroq deb yurishni shu yo'l bilan obro' ottirishni ham hayol qilishadi. Ularning nazoratida go'yo farzand bilan qancha kam uchrashishsa, ma'sofada muomala qilishsa, shuncha ko'proq obro' qozonish mumkin emish. Bu noto'g'ri tushuncha, yuzaki qarorga kelish hisoblanadi. Aksincha, ota-ona o'z farzandi bilan qancha kam muloqotda bo'lishsa, ularning mohiyati bilan yaqinda tanishmasa, o'z ta'siri o'tkazmasada, ular o'rtasida begonalashish, befarq bo'lish, his tuyg'ulari, ishonishlari xohishlari kelib chiqadi.

Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosida ham o'rin egallaydi. U o'zining qator asarlarida bolaning salomatligi, uning tarbiyasi haqida, eng muhimi bola ruhiyatini o'rganish borasida ko'plab qimmatbaho fikrlarni yozadi. Ularning hammasi bir butun bo'lib, muayyan pedagogik qarashlar tizimini tashkil etadi. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha yoshligidan boshlab va izchillik bilan olib borilishi lozimligini uqtiradi.

Oilaviy muhit qanday bo'lsa, bolalar xuddi shu muhit ta'sirida ulg'ayadi, umuman, har qanday oilaning mustahkamligi, oilaviy tarbiyaning ta'sirchanligiva samaradorligi ko'p jihatdan oilada qaror topgan er-xotin o'rtasida munsabatlarning xarakteriga, ma'naviy- axloqiy iqlimga bog'liq. Oilaviy tarbiyaga olim M.Inomova quyidagicha ta'rif

berish mumkin deb hisoblaydi.” Ota-onalarning o‘z hayotiy faoliyatlari, turmush tarzlari, onalar yordamida bola shaxsiga siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik diniy qarashlar, g‘oyalar, tasavurlarni shakllantirishni nazarda tutib bir maqsadga qaratilgan holda muntazam olib boriladigan izchil ma’naviy ta’sir o‘tkazish jarayonini ifodalaydi. Ibn Sino bola tarbiyasida oila boshlig‘i otaning roliga alohida e’tibor beradi. “Agar oilada deydi u, oila boshlig‘i tajribasizlik qilsa u oila az’olarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda bundan yomon natijalar kelib chiqishi mumkin” deya o‘z fikrini bayon qilgan. Ota-onalar burchagi oila bilan olib boriladigan ishning ko‘rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishiga alohida e’tibor berilishi kerak. Bundan tashqari ota-onalarga tarbiya to‘g‘risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko‘pincha ota-onalarni qiziqtiradigan bahslar boshlanishiga sabab bo‘ladi.

Ota-onalar uchun ochiq kunlar tashkil etilishi ham maktabgacha ta’lim muassasalari ishida muhim o‘rin egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalarning mashg‘ulotlari, mehnat o‘yin faoliyatlari, sayrlari va bolalarning jamoada o‘zlarining qanday tutishlari va shunga o‘xshashlar ko‘rsatiladi.

Bolaga uyda ta’lim berish tarjibasidan kelib chiqqan holda quyidagilar ishlab chiqilgan:

1) bola g‘azablanganda yoki arazlaganda zinhor uni koyish yaramaydi, ma’yus hafa bo‘lgan kezlarda unga tanbeh berish kerak emas. Tarbiya berishning eng muhim qoidasi bolaning o‘zini emas balki qilig‘ini maqtash yoki urushish kerak.

2) bolaning ta’lim olish jarayonida omadsizlikka uchraganini bo‘rttirib gapirmaslik kerak. U uchragan barcha qiyinchiliklarga sizning yordamingizsiz eplay olmasligiga ishonch hosil qilishi kerak, xolos.

3) uy sharoitida ta’lim olayotgan bola turli patologik kasalliklar xuruj qilgan kunlari qat’iy ratsional ovqatlanish tartibiga amal qilishi kerak (tez anglay olmaslik, yengil ta’sirlanish, tez toliqish va boshqalar)

4) dars tayyorlash jarayonida o‘zaro ziddiyatli, baxslashish, g‘azabni qo‘zg‘atuvchi vaziyatlarni keltirib chiqarmaslik kerak.

Sharq mutaffakirlari, pedagog olimlar barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligi to‘g‘risida so‘z yuritganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “al-Adab al mufrat” hadislar to‘plami, Yusuf Xos Hojibning “Qutatg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Husand Koshifiyning “Ahloqi Muhsiniy”, Jaloliddin

Doniyning “Ahloqi Doniy”, Abu Lays Samarqandiyning “Bo‘stonul-orifin” asarida tarbiya tarbiyalanishning ma’nosi “Tanbihul g‘ofiliyn” asarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish va yana ko‘plab mutaffakirlarimiz o‘z asarlarida shunga o‘xshash fikrlarni ilgari surgan. Bolaning tarbiyasi bilim olishiga ham katta ta’sir qiladi. Ota-ona o‘z bolasini ilmi, komil inson bo‘lishini istasa bolasiga to‘g‘ri tarbiya beradi, o‘qishidan xabardor bo‘lib turadi, o‘qituvchi bilan dam aloqada bo‘ladi. Shundagina farzandidan yaxshi natija kutishi mumkin. O‘z farzandini kamolotini ko‘rishni istagan ota-ona hamma mas’uliyatni o‘qituvchiga yuklamaydi, balki o‘qituvchi bilan birga faoliyat olib boradi. Ota-ona farzandiga ustozini hurmat qilishini, ustoz

ikkinchi ona ekanligini, maktab ikkinchi uy ekanini uqtirishi kerak. Shundagina bola ustozini hurmat qiladi. Uning barcha o'rgatgan narsalarini xotirasiga muhrlaydi, Bu esa shu o'rgangan narsalarini keyinchalik haytoida qo'llay olishiga yordam beradi.

Hozirgi kunda yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida oila qadriyatlarining tiklanishi va qarindoshlik munosabatlari, har bir oilaning iqtisodiy-madaniy, kasblar jihatdan ravnaq topishini anglatadi. Oila va oila muommolari hamisha davlatning diqqat e'tibori va himoyasida bo'lib kelmoqda.

Muhokama- o'zbek oilasida ota-onaning xoh o'gil, xoh qiz, xoh to'ng'ich farzand bo'lishudan qat'iy nazar ota- ona birday munosabatda bo'lishi va farzandlarni teng ko'rishi, tarbiya samaradorligini oshiradi. Har biro ta-onaning eng muqaddas orzu niyatlaridan biri bu farzand ko'rish, uni har tomonlama rivojlangan etib tarbiyalash, yaxshi kasb, chiroyli qalb egasi, yetuk shaxs etib voyaga yetkazish. Shaxsning kim bo'lishidan qat'iy nazar eng avvalo, insonparvarlik xususiyatlari odamlarga bo'lgan iliq munosabat, o'zaro hurmat, bir bilan aytganda, oilada insonparvarlik tarbiyasi har anday tarbiyadan ustundir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki oilaviy tarbiya doimo mavjudligi va serjiloligi bilan ajralib turadi. Unda odobga doir tadbirlarni bolalarga to'g'ri o'rgatish, maslahat berish, kattalar tajribasini emas, balki oilaning, muhiti, ota-onalrning kasb hunari, oila a'zolarining manaviy ruhiy munosabatlari katta rol o'ynaydi.

Oilada ota-onalar farzandlarini koyib emas ya'ni boshqalarning farzandlarini o'rnak qilib ko'rsatmasliklari kerak ya'ni ularni o'zlarini maqtash kerak. Farzandlarni qiziqtirish bilan birga motivatsiya berish ham muhim.

Hozirgi kunda biz ko'plab oilalarni ko'rishimiz mumkin ya'ni Farzandim gaplarimga quloq solmaydi, aytganlarimni qilmaydi va h.k deb asosan psixologga murojat qilishadi.

Aslida ota-onalar o'zlariga savol berishiga kerak. Yosh farzand tarbiyalayotgan ota-onalar farzandlari avol bersa, savollariga aniq javob berishlari kerak. Agar bola „bu nima?“ deb o'yinchoqni surasa “bu o'yinchoq” deb nomi bilan birga javob berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bola bir savoni takroran so'rashi ham mumkin. Chunki bola bir martada yangi tushunchalarini eslab qololmasligi mumkin. Agar bola “jim bo'l” degan javobni olsa keyingi safar o'zini qiziqtirgan savollarga javob ololmaydi. Unda barbir javob berishmaydi degan tushuncha paydo bo'ladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak farzand tarbiyalashda qanchalik faol bo'lishsa, farzand ham shunchalik yaxshi tarbiyalanadi. Bolaning tabiati, xulq-atvori oiladagi muhitga bog'liq.

Albatta, yaxshi farzandlar o'z-o'zidan voyaga yetmaydi, balki oilada ota-ona nazoratida tarbiyalanib ulg'ayadi.

Ulug'larimiz tomonidan farzandni har tomonlama barkamol voyaga yetishi uchun bir-necha tavsiyalar berilgan.

U “Islom, ilm, diyonat, qanoat, intizom, vijdon va vatanparvarlik, adolat, iffat, sabr hamda to'g'riso'zlik” kabi tavsiyalardan iborat bo'lib, yoshlar odob-axloq sohibi bo'lib shaklanishida muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Barkamol avlod –O‘zbekiston taraqqiyotining garovi. I.A.Karimov. Sharq 1997y.
2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. R.Mavlonova, N. Raxmonqulova, B.Normurodova.
3. Oilaviy hayot etikasi va psixalogiyasi. O.Turayeva. O‘qituvchi 1998y.
4. Mahsus pedagogika oligofrenopedagogika. P.Po‘latova.